XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-72-228-7-94-K/22 Jomboy tumani hokimligi

Jomboy tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 29-dekabrda “Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi VI–chaqiriq LXXII-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022 yil 29-dekabrda “Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qarori ijro va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022 yil 29-dekabrda “Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qarori muvofiq, Jomboy tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun daromadlari 130879200,0 ming so‘m, xarajatlari 199391161,0 ming so‘m prognoz qilinganligi, 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1045000,0 ming so‘m miqdorda hamda viloyat mahalliy budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 68511961,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi, bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar

kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023 yil uchun tumanning tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1881049,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

6. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022 yil 29-dekabrda “Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qaroriga asosan 2023-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman mahalliy budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

-jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

-norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno;

-aylanmadan soliq;

-Yig‘imlar;

-qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to‘lovlar viloyatning viloyat mahalliy budjeti hamda tuman mahalliy budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 50 foiz miqdorda tuman budjetiga;

-foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatiga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 40 foiz miqdorda tuman budjetiga.

-yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i 50 foiz miqdorda tuman budjetiga;

-yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i 50 foiz miqdorda tuman budjetiga;

-yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq tushumlarining 50 foiz miqdorda tuman budjetiga;

Mobil aloqa xizmati, tamaki mahsulotlari va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar tegishli ravishda tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Majidov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (J.Jumanov), Moliya bo‘limi (G‘.Burxanov), Davlat soliq inspeksiyasi (B.Baratov) va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini

ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratish;

tegishli ravishda tuman mahalliy bujet daromadlarining bajarilishi va hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Boxodirov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Majidov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **Q.Sobirov**

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-72-228-7-94-K/22-son qaroriga
1-ilova

Jomboy tumanining 2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ko‘rsatkichlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

(ming so‘mda)

№	Daromad turi	Miqdori
	JAMI DAROMADLAR	**130,879,200**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	32,259,000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	10,195,200
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	5,759,000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8,971,000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1,509,000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4,656,000
7	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2,900,000
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4,455,000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11,555,000
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	9,169,000
11	Aylanmadan olinadigan soliq	9,339,000
12	Yig‘imlar	325,000
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	183,000
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i	11,976,000
15	Mobil aloqa xizmati uchun aksiz solig‘i	5,137,000
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	12,491,000

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-72-228-7-94-K/22-son qaroriga
2-ilova

Jomboy tumani mahalliy budjetidan 2023 yil uchun hududiy Budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Miqdori
	Xarajatlar jami	**199,391,161**
1	Xalq ta’limi bo‘limi	12,079,972
2	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	12,837,630
3	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	62,584,000
4	Madaniyat bo‘limi	4,533,144
5	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	4,018,903
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1,808,017
7	Irrigatsiya tizimlari bo‘limi	1,423,750
8	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1,492,000
9	Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi	804,428
10	Moliya bo‘limi	1,512,762
11	Tuman xokimligi	86,064,892
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi muassasalar	464,930
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	198,443
14	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi	3,741,089
15	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	2,430,615
16	Mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash bo‘limi	3,396,586